

**ELEKTRON TIJORAT TIZIMINING IQTISODIY MOHIYATI VA
MODELLARI**

Mullabayev Murod Farxodjonovich

*“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruv kotibiyati
Tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash boshqarmasi Kotibiyat bo'limi boshlig'i,
E-mail: mullabayevmf@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur tezisda elektron tijorat tizimining iqtisodiy mohiyati va uni amalga oshirishda qo'llanilayotgan zamonaviy modellarning tahlili yoritilgan. Avvalo, elektron tijoratning iqtisodiyotdagi o'rni va uning global raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli iqtisodiy kategoriyalar asosida izohlangan. Unda elektron tijorat tovar va xizmatlarni sotish jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishga asoslanishi, xarajatlarni kamaytirishi, samaradorlikni oshirishi va yangi bozorlarni kengaytirish imkoniyatini berishi tushuntirib berilgan. Tadqiqotda elektron tijoratning B2B, B2C, C2C, C2B va G2C modellari alohida ko'rib chiqilib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliy qo'llanilish sohalari misollar bilan izohlangan. Shuningdek, ushbu modellar yordamida milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining raqamli savdo imkoniyatlarini kengaytirish, logistika tizimini rivojlantirish va aholi uchun qulay elektron xizmatlarni yaratish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, onlayn savdo, elektron to'lovlar, elektron bozor, internet marketing, elektron platformalar, elektron xizmatlar, elektron savdo modellar, B2B modeli, B2C modeli, C2C modeli, C2B modeli.

Hozirgi davrda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, elektron tijorat tizimining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy

munosabatlarda yangi imkoniyatlar va yo'nalishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tovar va xizmatlarni sotish, sotib olish, to'lovlarni amalga oshirish va xaridorlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish imkonini beruvchi elektron tijorat tizimi bugungi kunda dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning ichki imkoniyatlarini kengaytirib, tadbirkorlik subyektlariga yangi bozorlarga kirish imkonini beradi, sotuv jarayonida vaqt va xarajatlarni kamaytiradi hamda korxonalar samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, elektron tijoratning shakllanishi raqobatbardoshlikni oshiradi, xizmatlar sifatini yaxshilaydi va aholi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Elektron tijorat tizimining iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunish uchun uning asosiy tushunchalari, tarkibiy elementlari va ishlab chiqarish bilan bog'liqligini aniqlash muhimdir.

Bugungi kunda ishlab chiqarishdan tortib to sotuvgacha bo'lgan barcha jarayonlarda raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda. Bu esa elektron tijoratni oddiy onlayn sotuv bilan cheklab qo'ymaslik, balki uni murakkab iqtisodiy tizim sifatida o'rganishni talab qiladi. Shu jihatdan, elektron tijorat jarayonlarida elektron to'lov tizimlari, yetkazib berish xizmatlari, logistika tizimlari va ma'lumotlar almashinuvi kabi jarayonlar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat ko'rsatadi. Elektron tijorat jarayonlari orqali ishlab chiqaruvchi tovarni mijozga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib bera oladi, bu esa o'rta vositachilar sonini kamaytiradi va mahsulot narxining arzonlashishiga yordam beradi. Shu bilan birga, elektron tijorat bozorlarda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga, xaridorlar ehtiyojlarini to'liq qondirishga xizmat qiladi.

Elektron tijorat tizimining iqtisodiy mohiyatini o'rganishda uning zamonaviy modellari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon amaliyotida elektron tijoratning quyidagi modellari keng qo'llanilmoqda:

- B2B (biznes-biznes);
- B2C (biznes-iste'molchi);
- B2G (biznes-davlat/boshqaruvchi);
- G2G (davlat-davlat);

- C2G (iste'molchi-davlat);
- C2C (iste'molchi-iste'molchi).

Har bir modelning o'ziga xos xususiyatlari, ustunliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, ular milliy iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib tanlanadi va joriy etiladi. Masalan, B2B modeli ishlab chiqaruvchi va boshqa korxona o'rtasidagi elektron savdolari amalga oshirish imkonini berib, ishlab chiqarish zanjirida tezkorlik va xarajatlarni optimallashtirishga yordam beradi. B2C modeli esa korxona va yakka tartibdagi mijoz o'rtasida elektron sotuvni tashkil etadi, bu esa keng aholiga tovar va xizmatlarni qulay narxlarda taklif qilish imkonini beradi. C2C modeli odamlar o'rtasida mahsulotlarni sotish imkoniyatini yaratar ekan, jismoniy shaxslarning ortiqcha buyumlarini onlayn bozor orqali sotishga imkoniyat yaratadi. Shu tarzda elektron tijoratning har bir modeli iqtisodiyotning turli bo'g'inlari uchun muhim hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan elektron tijorat modellarning xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Elektron tijorat modellari va ularning xususiyatlari¹

Model nomi	Ta'rifi	Asosiy xususiyatlari	Amaliy misollar
B2B (Business to Business)	Korxonalar o'rtasida tovar va xizmatlar bilan savdo qilish modeli	Yirik partiyalarda bitimlar, uzoq muddatli hamkorlik, narx bo'yicha kelishuv imkoniyati, logistika integratsiyasi	Alibaba, Global Sources
B2C (Business to Consumer)	Korxonalardan to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga sotish	Keng turdagi mahsulotlar, tezkor yetkazib berish,	Amazon, Ozon, Wildberries

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan
www.tadqiqotlar.uz

	modeli	onlayn to'lov, xarid qulayligi	
C2C (Consumer to Consumer)	Odamlar o'rtasida mahsulot va xizmatlarni sotish modeli	Xususiy e'lonlar, foydalanilgan mahsulotlar savdosi, arzon narxlar, to'g'ridan-to'g'ri muloqot	eBay, OLX, Avito
C2B (Consumer to Business)	Iste'molchilarning xizmat va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchiga taklif etishi	Buyurtma asosida xizmat ko'rsatish, freelancer xizmatlari, tanlovlar orqali takliflar	Upwork, Freelancer
G2C (Government to Consumer)	Davlatdan aholi uchun xizmatlarni onlayn taqdim etish modeli	Davlat xizmatlari uchun arizalar, onlayn to'lov, davlat statistikasi bilan ishlash, ochiqlik	My.gov.uz, davlat xizmatlari portallari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, elektron tijoratning turli modellari o'zaro farq qiluvchi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi va har birining o'ziga xos afzalliklari mavjud. B2B modeli korxonalarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish, ishlab chiqarish uchun zarur materiallarni tezkor xarid qilish, yetkazib berish jarayonida xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Bu model orqali yirik hajmdagi bitimlarni amalga oshirish mumkin bo'lib, ishlab chiqarish zanjirida uzluksizlikni ta'minlaydi. B2C modeli esa aholiga keng turdagi mahsulotlarni qulay va tez yetkazib berishni ta'minlab, xarid qilish jarayonini soddalashtiradi va aholi turmush darajasini oshiradi. C2C modeli oddiy odamlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mahsulot va xizmatlarni sotish imkonini berib, bozorda ikkilamchi tovarlar aylanishini rag'batlantiradi, odamlarning qo'shimcha daromad topish imkoniyatlarini oshiradi. C2B modeli esa iste'molchilarni faol jarayon

ishtirokchisiga aylantiradi va freelancer xizmatlari orqali yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. G2C modeli esa davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish orqali aholining davlat idoralari bilan munosabatini soddalashtiradi, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va davlat xizmatlarining ochiqligini ta'minlaydi. Shu tariqa, barcha modellar elektron tijoratning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rnini oshirib, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat tizimi zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish va aholiga qulay xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratishda muhim o'rin tutmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratning B2B, B2C, C2C, C2B va G2C kabi modellari milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida samarali ishlashi uchun zamonaviy infratuzilma, elektron to'lov tizimlari, logistika xizmatlari va raqamli savdo madaniyatining shakllanishi talab etiladi. Elektron tijorat jarayonlari xarajatlarni kamaytirish, vaqtni tejash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, elektron tijoratning rivojlanishida mavjud muammo va to'siqlarni bartaraf etish, ayniqsa, internet infratuzilmasini rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, elektron to'lov tizimlarini takomillashtirish va soliq tizimini elektron savdo uchun moslashtirish talab etiladi. Taklif sifatida, elektron tijoratning rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida tadbirkorlar uchun elektron savdo bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish, davlat tomonidan elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish, elektron platformalarni rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanishiga, ichki bozor barqarorligiga va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmetova Z, Baimukhanbetova E, Belgozhakzy M, Alikbaeva A, Tulebaeva N. (2020) "The development of e-commerce infrastructure in modern conditions". E3S Web of Conferences 159
2. Baxtiyor Maxkamov, Gulnora Ismoilova, & Bobur Raximov. (2023). Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 974–983.
3. Ismoilova Gulnora Fayzullaevna (2023) Elektron pullar va ularning o'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri:nazariya va yondoshuv // SAI. №Special Issue 13. Ismoilova, G. (2023). Elektron pullar va ularning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(8), 27–32.
4. Ismoilova, G., Makhkamov, B., & Makhmudov, D. (2022). Business in the development of ecommerce. In 2022 International Conference on Information Science and Communication Technology September (ICISCT) (pp. 1-7). IEEE Standard.
5. Maxkamov, Gulnora Ismoilova, Bobur Raximov. (2023). Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 974–983.
6. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
7. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
8. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti